



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARDAN FOYDALANISH HAMDA ULARNING SAMARADORLIGI

Amirova Nozima Olim qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15175734>

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishga qaratilgan katta e'tibor hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan innovatsion texnologiyalar va metodlarni dars jarayonlarida tadbqiq etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xorijiy tillar, zamonaviy texnologiyalar, texnologik vositalar, usullar, metodlar.

Hozirgi globallashtirilgan jamiyatda xorijiy tillarni o'qitish jarayoni sezilarli darajada rivojlanib, ularni o'rganishga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Negaki, chet tillarini bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki kasbiy muvaffaqiyat uchun ham muhim hisoblanadi. Masalan, til o'rganish miyaning faolligini oshirishda, boshqa millatlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini va dunyoqarashini tushunishda, sayohat qilish va boshqa irq, millat vakili bo'lgan shaxs bilan muloqot qilish, eng asosiysi kognitiv moslashuvchanlikni oshirishda katta xizmat qiladi. Kasbiy tomondan esa xorijiy tillarni bilgan kadrlar ko'plab sohalarda yaxshi lavozim va yuqori maosh olish, xalqaro kompaniyalarda ishlash va o'z biznesini rivojlantirishda ko'plab ustunliklarga ega bo'ladilar. Lekin ularni o'qitishda an'anaviy metodlardan tashqari, innovatsion metodlarni qo'llash xalqaro talablarga javob beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromoniych Mirziyoyevning 19-may 2021-yildagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ham "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim sifatini tubdan oshirish sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga alohida ahamiyat qaratilgan. Qaror ijrosi doirasida chet tili darslarining o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda.

Chet tillarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni tadbqiq etish o'quv



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

jarayonini samarali, interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi.

1. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarga interaktiv materiallardan foydalanish imkonini beradi. Masalan, mobil ilovalar (Duolingo, Memrise), virtual sinflar va sun'iy intellektga asoslangan ta'lim dasturlari o'rganish jarayonini osonlashtiradi. O'quvchilar ushbu vositalar orqali mustaqil ravishda mashqlar bajara oladilar.

2. Audio, video va graffik materiallar til o'rganishda katta ahamiyatga ega. Msalan, YouTube'dagi ta'lim kanallari yoki Ted Talks kabi platformalar yordamida o'quvchilar haqiqiy til muhitiga sho'ng'ib o'rganishlari mumkin. Bu esa ularning talaffuz va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

3. O'yin elementlarni qo'shish o'quvchilarni rag'batlantiradi va ularning o'qishiga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Masalan, tilning ma'lum sohasiga doir savollar o'yin tarzida berilganda, olingan mukofotlar va darajalar o'rganuvchini muntazam mashg'ulot qilishga undaydi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixolog mexanizmlari shaxsning o'zini namoyish qilish, hayotida barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

Masofaviy ta'lim va global aloqa imkoniyatlari. Onlayn ta'lim platformalari (Coursera, Udemy, edX), virtual darslar (Zoom, Google Meet, Microsoft Teams) yordamida har qanday hududdagi o'quvchi dunyoning istalgan joyidan malakali mutaxassislardan ta'lim olishi mumkin. Universitetlar, til markazlari va o'qituvchilar ushbu platformalar orqali darslar tashkil etishadi. Bu texnologiyalar o'qitish sohasida yangiliklar olib kelishga yordam beradi va o'quvchlarga o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Har bir texnologiyani to'g'ri yaratish va aniq maqsadlar uchun qo'llash juda muhimdir. Yangi texnologiyalarni o'rganish va ularni o'quv jarayonida tadbiiq etish uchun pedagoglar, dizaynerlar va muhandislar kuchli jamoa bo'lib ishlashlari zarur. Bu har qanday sohani rivojlantirishda, ayniqsa, o'qitish sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda nafaqat chet tillarini o'qitish, balki barcha fanlarni o'rgatishning yangi metodlarini ishlab chiqish va ularni amalda sinab ko'rish bo'yicha ko'plar ishlar olib borilmoqda. Bu jarayon bugungi kundagi ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kas etadi. Agar avval chet tili o'qitish shu til sistemasini o'rgatish bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda esa asosiy e'tibor chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, chet tilini o'rganish maqsadlari o'z-o'zidan yoki shaxsiy tashabbus bilan belgilab



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

qo'yilmaydi. Ular lingvistika va psixologiya fanlaridagi o'zgarishlar hamda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, audiolingval metodni olaylik. Ushbu metodning shakllanishiga lingvistika fanidagi o'zgarishlar, xususan, strukturalizm oqimining ta'siri katta bo'lgan. Bu metod quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Chet tilini o'qitish og'zaki nutqni shakllantirishdan boshlanishi lozim;
- Til o'rganish jarayoni turli grammatik strukturalar va nutq namunalari asosida amalga oshiriladi;
- Mashqlar til materialini takrorlashga asoslangan bo'lishi kerak;
- Grammatik namunalar va leksikani tanlash ona tili bilan chet tilining qiyosiy tahliliga asoslanishi lozim;
- To'g'ri talaffuzga katta e'tibor berilishi kerak.

Ushbu metodning asosiy kamchiligi shundaki, u juda ko'p mexanik mashqlarni talab qiladi, biroq haqiqiy kommunikativ nutq mashqlari yetarlicha emas. Bu metodning asoschilari taniqli metodist olimlar Ch. Friz va R. Lado hisoblanadi. Masalan, Ch. Frizning ta'kidlashicha, boshlang'ich metodning asosiy mazmuni til strukturalarini o'rganishga qaratilishi kerak. Shuningdek, grammatik ko'nikmalarni shakllantirish ham ushbu yondashuv asosida olib borilishi maqsadga muvofiq. Noan'anaviy yondashuv va turli metodlarning qo'llanishi darslarning zerikarli bo'lishini oldini olib, o'quvchilarning xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Natijada, o'qituvchilar darsga puxta tayyorgarlik bilan kelib, o'zlashtirish samaradorligi sezilarli darajada oshirishga erishiladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, xulosa qilish mumkinki, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlari ega bo'lib, ularning asosiy vazifasi o'quv jarayonini samarali va interaktiv qilishdir. Ushbu usullar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol hamkorlikni ta'minlab, ta'lim jarayonida o'quvchining faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Azimovna, R. F. (2024). Youth Entrepreneurship and its Development Measures. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(1), 340-343.
2. Bekzodovna, J. M., & Akbarovna, D. G. (2023). INNOVATIVE METHODS AND TOOLS IN HIGHER EDUCATION. Science and Innovation, 2(11), 708-715.
3. Jumayeva, M., Quvvatova, G., & Dovurova, G. (2023). INNOVATIVE METHODS AND TOOLS IN HIGHER EDUCATION. Science and innovation, 2(B11), 713-720. 9.
4. Khasanova, Gulsanam Khusanovna MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF



**XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING IN THE WORLD // ORIENSS. 2021.
№Special Issue

5. O.D.Raximov, O.M.Turg'unov, Q.O.Mustafayev, H.J.Ro'ziyev. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari.Toshkent-2012.20-bet
6. Муминова, Ф. М. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish / Ф. М. Муминова. — Текст: непосредственный // Молодойученый. — 2020. — № 18 (308). — С. 590-592.